

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga qilinmoqda. Bu esa, aholi xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biz-nesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-avgust oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 9 095 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 819 taga yoki 44,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 8 649 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 672 taga yoki 44,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 168 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 418 taga yoki 23,8 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 24 172 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 099 taga yoki 26,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23 187 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 007 taga yoki 27,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-avgust oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 956 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 876 taga yoki 28,4 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

8



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 652 tani tashkil etib, ulardan 636 tasi yoki 97,5 %'i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 86 taga yoki 15,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 65 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-avgust oylarida, birlikda)

	2020 y.	2021 y.
Jami	49	65
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10	9
Sanoat	21	21
Qurilish	5	1
Savdo	8	15
Tashish va saqlash	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	3
Axborot va aloqa	-	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	3
Boshqa turlar	2	10

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

9



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


	74-Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
	321-Sanoat
	37-Qurilish
	102-Savdo
	15-Tashish va saqlash
	20-Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
	7-Axborot va aloqa
	9-Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
	51-Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

■ O'sish sur'ati ■ 2021- y. ■ 2020- y.



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

11


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	636	437	199
Samarqand sh	277	173	104
Kattaqo'rg'on sh	21	16	5
tumanlar:			
Oqdaryo	35	29	6
Bulung'ur	25	11	14
Jomboy	45	34	11
Ishtixon	14	9	5
Kattaqo'rg'on	12	11	1
Qo'shrabot	22	12	10
Narpay	5	4	1
Payariq	17	11	6
Pastdarg'om	28	22	6
Paxtachi	10	5	5
Samarqand	44	33	11
Nurobod	14	13	1
Urgut	53	44	9
Toyloq	14	10	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 277 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 43,5 %), Urgut 53 ta (8,3 %), Samarqand 44 ta (6,9 %), eng kamlari esa Narpay 5 ta (0,8 %), Paxtachi 10 ta (1,6 %) hamda Kattaqo'rg'on 12 ta (1,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,0 %), Urgut (8,6 %), Pastdarg'om (8,5 %), Samarqand (7,5 %), Payariq hamda Ishtixon (5,3 %), Kattaqo'rg'on (5,0 %), Toyloq (4,2 %), Oqdaryo (4,1 %), Bulung'ur (4,0 %), Jomboy (3,9 %) Kattaqo'rg'on shahri hamda Narpay (3,3 %), Nurobod (3,0 %), Paxtachi (2,6 %) va Qo'shrabot (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (25,2 %), Pastdarg'om (9,1 %), Urgut (8,2 %), Samarqand (7,9 %), Ishtixon (5,8 %), Oqdaryo (5,4 %), Kattaqo'rg'on (5,3 %), Payariq (4,9 %), Toyloq (4,4 %), Jomboy (4,1 %), Bulung'ur (4,1 %), Nurobod (3,8 %), Narpay (3,3 %), Paxtachi (3,2 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,0 %) va Qo'shrabot (2,3 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (35,6 %), Urgut (8,1 %), Samarqand (7,6%), Pastdarg'om (7,0%), Kattaqo'rg'on (5,1 %), Payariq (4,6 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,4 %), Oqdaryo hamda Nurobod (3,9 %), Bulung'ur (3,8 %), Jomboy hamda Ishtixon (3,6 %), Toyloq (3,0 %), Paxtachi hamda Qo'shrabot (2,2 %) va Narpay (1,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqdi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

14




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



15



2021- yilning yanvar-avgust oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (17,5 %), Pastdarg'om (12,5 %), Samarqand (12,1 %), Payariq (8,3 %), Urgut hamda Oqdaryoda (7,5 %), Kattaqo'rg'on (7,3 %), Jomboy (6,0 %), Bulung'ur (5,2 %), Ishtixon (4,8 %), Toyloq (4,7 %), Narpay (3,7 %), Qo'shrabot (1,0 %), Kattaqo'rg'on shahar (0,9%), Paxtachi (0,8 %) va Nurobod (0,2 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a menu titled "RASMIYIY STATISTIKA" with various links like "El'on qilish taqvim", "Metama'lumotlar", etc. The central part shows a search form for "STIR kodini kiritning" (Enter STIR code) with a dropdown menu showing "Statistik klassifikatsiyalar" selected. To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" listing various reports and publications.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo`limi**
Tel.: 66 235-14-42